
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

gani uchungina jinoyatkor bo‘lgan…»[1]. Nazarimizda, prokuror o‘rinbosari jamiyatga haqiqatan ham xavf solishi mumkin bo‘lgan katta o‘g‘rilarni javobgarlikka tortishga kuchi yetmasligiga amin bo‘lib, o‘z kuch g‘ayratini ojiz, mayda o‘g‘rilarni jazolashga sarflaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud jarayonlarining badiiy talqini keng ko‘lamda o‘rganildi. Adabiyot asarlarida sud va adolat masalalari, insoniy axloq va ijtimoiy muammolar o‘rganilib, mualliflar tomonidan kuchli tasvirlar va chuqur fikrlar bilan bayon etilgan. Ushbu asarlar orqali adabiyot nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy va etnik masalalarni yoritishdagi o‘rnini ham namoyon etadi. Shu bilan birga, adolat, insoniylik va axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritish imkonini beradi, bu esa zamonaviy jamiyat uchun juda muhimdir.

Резюме: Статья анализирует художественные интерпретации судебных процессов и юриспруденции в мировой литературе, подчеркивая произведения Толстого, Кафки, Камю, Достоевского и других, исследующих справедливость и мораль.

Resyume: This article analyzes artistic representations of legal proceedings and jurisprudence in world literature, highlighting works by Tolstoy, Kafka, Camus, Dostoevsky, and others that explore justice and morality.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA O‘ZBEK XARAKTERINING BADIIY IFODASI

Tangirov Ro‘ziboy,
Termiz iqtisodiyod va servis universiteti tadqiqotchisi

Dunyo adabiyotshunosligida “badiiy xarakter” masalasi haqidagi qarashlar uzoq yillik tarixga ega. Agar mazkur terminning adabiyotshunoslik sohasida qo‘llanishiga va bu hodisaning yozma adabiyotga ta’sirining o‘ziga xosligini, badiiy adabiyotga ta’siri masalalasida fikr yuritsak, juda uzoq tarixiy genezis ko‘zga tashlanadi. Adabiyot paydo bo‘libdiki, unning asosida xarakter yaratish san’ati birlamchilik ahamiyat kasb etib kelmoqda. Adabiyot bizga turmushni o‘rganadigan qurol bo‘lib xizmat qiladi. Unda insonning yashash tarzi, o‘ziga xos fazilatlari, psixologiyasi, orzu-umidlari obrazli tasvirlanadi. “Yozuvchi turmushni fakt va hodisalarni o‘rganadi, ulardan zarur xulosalar chiqaradi. Ana shu xulosalarni jonli obrazlar vositasida ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyot dunyoni badiiy o‘zlashtirishdan iboratdir”[2].

Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o‘ziga xos tarzda kechadi. Shunday ijodkorlar borki, ifoda yo‘sinining betakrorligi, badiiy tasvir uslubining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunoslik, xususan, uning tarkibiga kiruvchi adabiy tanqid o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotida ikki ijodkor – Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayevning xizmatlarini alohida ta’kidlab ko‘rsatib keladi. Aslida mazkur yozuvchilar nafaqat hikoya, shuningdek, qissa, roman, drama janrlarida ham samarali ijod qilishgan. Shunga qaramay, bu qalam sohiblari aynan kichik epik janr deb hisoblanadigan badiiy shakl rivojining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini va mavqeini yuksaltirish bo‘yicha e’tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar. Shukur Xolmirzayevning ifodalash tarzi va ifoda yo‘sini Abdulla Qahhorga o‘xshab ketadi. U hikoyalarida kam gapiradi. Asosan, qahra-

[1] Толстой Л.Н. Тирилиш. –Тошкент. Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. Б. –163..
[2] Шарафиддинов О. Адабиёт – ҳаёт дарслиги. – Тошкент, 1981. – В. 7.

monlarning o‘ziga so‘z beradi, detallardan o‘rinli foydalanadi.

Yigirmanchi asrning oltmishinchi yillari boshidan milliy nasr maydoniga kirib kelgan iste’dodli yozuvchi Shukur Xolmirzayev o‘ziga xos uslubi, hayot haqiqatini ob’ektiv va teran badiiy ifoda etishga moyilligi o‘ziga tengdosh adiblardan ajralib turardi. U ellik yillik ijodiy faoliyatida qissa, roman, drama, esse janrlarida samarali ijod qildi. Shunga qaramay, u o‘zini birinchi navbatda hikoyanavis deb bilar edi. Umr bo‘yi mana shu badiiy shaklga sodiq qoldi. O‘zbek hikoyachiligini jahon adabiyoti durdonalari darjasiga olib chiqish uchun juda ko‘p izlandi, kichik epik shakl imkoniyatlarini yanada kengaytirish borasida muntazam izlangan, janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan iste’dod sohibidir.

Ana shu hayot voqealarini mohirona obrazli qilib gavdalantirgan yozuvchilardan biri, o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Shukur Xolmirzayevdir.

Adib adabiyotning hikoya, qissa, roman janrlarida barakali ijod qilgan. Ayniqsa, “Shukur Xolmirzayev o‘zbek hikoyachilik san’atining ustozi Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko‘targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag‘ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi”[1]. Uning hikoyalari bir qarashda oddiydek, lekin ularni o‘qib tahlil qilinsa, unda o‘zbek xalqining xarakteri, qiyofasi, hayot tarzi, orzulari va ulkan dardlari mohirona tasvirlangan.

Yozuvchining “O‘zbek xarakteri” deb nomlangan hikoyasida yuqorida keltirilgan fikrlar isbotini ko‘ramiz. Ushbu hikoyada Shukur Xolmirzayev ta’biri bilan aytganda oddiy-jaydari, sodda o‘zbekning bagri kengligi, to‘poriligi tasvirlangan. Asardagi Botir cho‘pon, ayoli, o‘g‘li Abduqodir o‘zbekona xarakterga ega bo‘lgan oqko‘ngil, garchi yashash sharoiti to‘kislikda bo‘lmasa-da, mehmondo‘st, bag‘ri keng insonlar. O‘rmonjon, Azimjon, Mirzag‘olib (laqabi Rais), Ergashlar esa asar voqealarini tadrijiy rivojlantirib boruvchi personajlar sifatida qayd etiladi. Asar tarkibida voqealarning badiiy rivojlanib borishi, ularning xarakter qirralarini yoritilishiga asos bo‘ladi. Har qanday voqelik zamirida inson qismati mujassamlashgan ekan, uning o‘z olami, ruhiyatidagi kechinmalari, ziddiyatlari ham namoyon bo‘lib boradi. Shuning uchun iste’dodli adib Shukur Xolmirzayevning har bir hikoyasida inson qismati, hayot va borliq o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy ifodasini kuzatish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida olam va odamni anglashga imkon beradi.

Shukur Xolmirzayev “Hikoya, hikoya” nomli maqolasida qayd qilganidek: “Ma’lumki, jamiyatning eng kichik yacheykasi oila bo‘lgani va jamiyat hayoti oilada (bemalol) aks etganidek, roman va qissa orasida hikoya ham shunday “kichik oila”dirki, anovi janrlarda tasvirlanishi lozim bo‘lgan yirik voqealar bunda ham (bemalol) yoritilishi mumkin”[2].

Darhaqiqat, badiiyatning turli namunalarida xarakterlar yaratiladi, ammo u ijodkor uslubiga, mahoratiga hamohang tarzda yaratiladiki, uning yuzaga chiqishida ijodkorning hayotni anglashdagi mahorati yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ham, adib epik janrning qaysi turida qalam tebratmasin, inson va hayotning dialektik birligida insonni, uning qismatini, xarakter qirralarini haqqoniy yoritishga intiladi. Iste’dodli adib Abdulla Qahhordan keyin janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shishi bilan birgalikda, uning takomillini ham namoyon etgan ijodkorlardan biri sifatida e’tirof etildi.

Yozuvchi olam va uning asosiy xususiyatini o‘zida mujassamlashtirgan inson qismatini, hayotini, ziddiyatlarga to‘la muhitini yoritishga intildiki, bu esa hikoya janrini yuksak darajaga ko‘tarish bilan bir qatorda, uning mukammal namunalarini, poetik ifoda shakllarini yuzaga chiqrishda tinimsiz izlandi.

Adabiyotshunos Olim Toshboyev qayd qilganidek: “Yozuvchining bosh maqsadi o‘zbek xalqining ichki dunyosini, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyatini ko‘rsatish bo‘lgan.

Axir, millat, xalq ma’lum bir ma’naviyati bilan millat-da! Inson zotining aziz aziz va mukarammligi ham ma’naviyati tufayli emasmi?

“O‘zbek xarakteri”da xalqimizning kechagi kuni, aniqrog‘i, sotsializm davridagi yo‘qotishlari aks”ligini qayd etgan[3].

Hikoyada davrning murakkab muammolari talqin etilar ekan xulosa chiqarishni kitobxonning hukmiga qoldiradi. Hikoyadagi voqealar silsilasi o‘sha davrning hayotini qamrab olar ekan, uning murakkab qirralariga “qora bo‘yoq chaplamaydi”, aksincha, shunday mahorat bilan voqealar rivojini talqin etadiki, inson qlabidagi tuyg‘ularga sindirib yuboradi. Bu tuyg‘ularda hayot va yashashning go‘zalligi bilan bir qatorda, uning istiroblari, azoblari ham o‘rin olganligini his eta boshlaydi. Hikoyadagi voqealar Ko‘korol xo‘jaligida kechadi. Yoshlik xotiralari asosida shakllantirilgan voqelik, insonni anglashga, turfa xil xarakterlar yaratishda, ularning ba’zan ruhiy istiroblar iskanjasida qolishida davr va muhitning sezilarli ta’siri mavjud edi. Ergashning qalb kechinmalarini,

[1] Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – В. 174.

[2] Холмирзаев Ш. Ҳикоя, ҳикоя... Маълумот учун қаранг: Мен адабиётни қисматим деганман...: адабий ўйлар, мақолалар, суҳбатлар. – Тошкент: Шарқ, 2022. – В. 488.

[3] 4.Тошбоев О. Абадий замондош. Шукур Холмирзаев ҳаёти ва ижодий фаолиятидан лавҳалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – В. 480.

Botir cho‘ponnong insoniyligini, ayolining shu muhitga ko‘nikib yashashi, achchiq va murakkab hayotga singib ketishi, shuning barchasini hayot deb o‘tishi, juda asosli talqinlarda namoyon bo‘lgan. Totalitar tizimning insonga qilgan zulimini hikoyadgi tasvirlardan yanada teranroq anglash mumkin.

“Sh.Xolmirzayev hikoyalarida tadqiq etilgan inson va tabiatning o‘zaro aloqasi masalasi yozuvchi ijodiy evolyusiyasining deyarli barcha bosqichlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday hikoyalarning bir qismida tabiatni asrab-avaylash haqida gap ketsa, boshqa bir guruhida tabiat go‘zalliklarini tasvirlash bilan birga, inson va tabiat munosabatlari go‘zalligini tarannum etuvchi asarlar ko‘proq o‘rinni egallagani ko‘rinadi, chunki yozuvchi insonda tabiatga munosabat orqali yaxshilikni, ezgulikni, katta bir mehrni ko‘rishni istaydi. Bu hol, ayniqsa, inson va hayvonot dunyosi, inson va o‘simliklar olami tasvirida yaqqol ko‘rinadi”[1]. Adibning bir qator hikoyalarida inson va tabiat birligi uzviylikda talqin etiladi, “O‘zbek xarakteri” va “O‘zbek bobo” kabi hikoyalarida ham bu dialektik birlikni shu darajada mukammal talqin etadiki, uning asosida go‘zal hayot va inson qismati uyg‘unlashib ketadi. Sh.Xolmirzayevning “O‘zbek bobo” hikoyasida tasvirlangan Amirqul polvon obrazi ko‘p jihatdan Alpomishni eslatadi. Undagi insoniylik, polvonlik, muloqot shakllarining barcha-barchasi milliy xarakterga asoslangan inson qiyofasini ko‘z oldimizda jonlantiradi.

Adibning “O‘zbek bobo” hikoyasidagi qahramonlar badiiy olamidagi qarashlar, tushunchalar, soddalik, bag‘rikenglik, insoniy fazilatlarga singdirilganki, bu esa insonni anglashga, uning xarakterini his etishga imkon beradi. Hayot achchiq, murakkab voqelikdan iborat ekanligini, ammo insoniy fazilatlar yo‘qolmasligini avlodlar osha yashayberishini tushunamiz. Inson dunyoga kelar ekan, yillar o‘tib uning qismati, taqdiri, shaxs ruhiyati bilan uzviy birlashib ketadi: “Amirqul polvon ana shu terak tagiga etganida peshonasi tirishdi va ketmon peshidek kaftini daraxt tanasiga bosib xiyol itargandi, shunday bahaybat terak bemalol qimirladi. Chol bir oz tislanib: “Sob bo‘pti”, dedi ovoz chiqarib”. Ijodkorning badiiy mahorati shunda ko‘rinadiki, badiiy detal asosida insonni hayotga, o‘z o‘tmishini sarhisob qilishga majbur etadi. Terakning shoxlaridagi sa’valar gur etib uchib ketadi, biroz vaqt o‘tib yana kelib joylashadi. Amirqul polvon xayolan uzoqlarga safar qiladi, bir vaqtlar bu terakning ko‘rki, mustahkamligi, ammo yillar shamoli, eng asosiysi vaqt uning keksaligini, umrini yashab bo‘layotganligini anglatish orqali, o‘zining hayotiga, keksaligiga qiyos qiladi. Aslida ham, yozuvchining maqsadi terakning keksaligi, uning uzoq yil yashaganligini emas, bu orqali insonning umri, qismati mujassamlashganligini, ramziy ma’no asosida polvonning hayotini ko‘rsatib bergandek taassurotni uyg‘otadi.

Keksarib qolgan polvonning hali ham bilagida kuchi ko‘p, qishloqni, odamlarni hurmat qilishi bilan birgalikda, bu erning har bir giyohini e’zozlardi. Uning qalbida orzulari juda ko‘p edi, ammo hayot, adolat va adolatsizlikning ba’zan qurboni bo‘lganligini xayolan jonlantirar ekan, o‘sha lahzalarda ham haqiqatga, adolatga tik qaraganidan, o‘zining xarakteri ham murakkab bo‘lganini tan olardi. Hayotning ma’nosi shumikin, deb o‘yga tolardi. Terak kabi “qimirlab”, nozik bo‘lib qolganini yana-da yaxshiroq angladi.

Hikoya qahramonlaridan biri Qismatilloning portiretini yozuvchi shunday tasvirlaydi: “U past bo‘yli, burni uzun, sochi orqaga ancha surilib ketgan, labidan kulgi-tabassum arimasdi. Hozir u ancha bashang kiyingan, ya’ni egnida qop-qora kastyum shim, oyog‘idagi tuflisi ham shundoq loygarchilikda yaltirab turar, bir qarasang – qiziq bir xushxabarni etkazish uchun bu erda paydo bo‘lgani kabi”.

Qismatilloning ismi jismiga monand, yozuvchi uning xarakterini ochib berishda polvon bobo bilan bo‘lgan suhbatdan unimli va o‘rinli foydalanadi. U ham oddiy inson, zax bosgan bobosidan qolgan hovlida yashaydi, ammo u erdan ko‘chib ketishni hohlamaydi, otasining bu erda avlodlar “xoki bor”, degan gaplarini xayolidan chiqara olmaydi. Polvon bobo bilan suhbatlashar ekan uning o‘g‘li Shokir endi qishloqqa qaytmasligini, unga atab qurilgan uyga ko‘chib kelishini, agar ruxsat bersa, shu bugunoq kelishini aytdi. Ammo polvon boboning dili ranjiganligini sezib darhol hazilga olib, uning qalbini yumshatishga intilgan holatlari juda asosli talqin etilgan.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: “Yozuvchi o‘z qahramonlarini “g‘oya tashuvchi” vositaga aylantirmagan, o‘ziga xos xislatlari, fazilat-u nuqsonlari bilan haqqoniy va tabbiy gavdalantirishga erishgan”[1]. Iste’dodli ijodkor Shukur Xolmirzayev qaysi davrda qalam tebratmasin, insonni qanday anglash kerak bo‘lsa shunday badiiy talqin etishga intildi. Yozuvching har bir hikoyasida, milliy qadriyatlar, an’analar yarq etib turadi. Chunki yuqorida qayd qilinganidek, adib qahramonlari boror g‘oyaga xizmat qilmaydi. Uning insoniyligi, xarakter egasi ekanligi, fazilatlaridan, ruhiy kechinmalarida yana-da teranroq anglashilib turadi.

“O‘zbek bobo” hokoyasidagi talqinlar va badiiy qahronmanlar ifodasida mard, tanti, bir so‘zli polvon boboning xarakterida juda katta insoniylik fazilati mujassamlashgan.

Uning har bir harakati, fikrining zamirida shunday tushunchalar mujassamlashganligini kitobxon ang-

[1] Холмирзаев Ш. Сайланма. III жилд. Ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – В. 201.

lay boshlaydi. Yozuvchining “O‘zbek xarakteri” hikoyasida ham aynan shu xususiytlar yanada teranroq o‘z ifodasini topgan.

Adib hikoyalaridagi bunday talqinlarning poetik ifodadagi o‘rni shundan iboratki, ijodkor qahramonlari bu zaminni har bir zarrasini, giyohini, bahoru, qishini sevuvchi, uni qalban ardoqlovchi shaxslardir. Bunady talqinlar asosida esa, milliy xarakterlar mujasamlashgan. Ana shu talqinlar kitobxonni o‘zligini anglashga, olamga teranroq nazar solishga yanada kengiroq, asosliroq mulohaza yuritishga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot “xarakterlar yaratish san’ati ekan”, uning zamirida milliy qadriyatlarga asoslangan milliy qahramonlar, xarakterlar shakllanishi tabiiy hol. Shuning uchun ham adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek: “har bir qahramonning o‘z niyati bor, bu hol uning o‘ziga xos xarakteri va intilishini hosil qiladi... Shu sababli kishilar xarakterida o‘sha davr, o‘sha davr kishilariga xos bo‘lgan umumiy (tipik) va o‘ziga xos individual xusussiyatlar bo‘ladi”[2].

Shukur Xolmirzayevning bir qator hikoyalarida insonni anglashga, uning xarakter xususiyatlarini yoritishga qaratilgan talqinlar mavjudki, bunday ifodalar milliy xarakterlarni o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqargan. Iste’dodli adibning bir qator hikoyalarida milliy xarakterlar mahorat bilan yaratilganki, buning asosida ijodkor hayotni, insonni juda teran anglashi, ularning ruhiy-ma’naviy olamini ham asosli talqin etishiga sabab bo‘lgan.

Resume: In the stories of the talented writer Shukur Kholmirzayev, there are interpretations typical of national people. At the heart of this is the development of a person, his mental and spiritual awareness, feelings, and the development of a gallery of images embodying national characters. An analysis of a number of Uzbek views on personal appearance on the example of some stories, and the quality of the analysis based on the writer’s artistic skill in character.

Резюме: В рассказах талантливого писателя Шукура Холмирзаева присутствуют типичные для национального народа интерпретации. В основе этого развитие человека, его психическое и духовное сознание, чувства, развитие галереи образов, воплощающих национальные характеры. В статье анализируются взгляды ряда узбеков на изображение на примере некоторых рассказов и качество анализа, основанное на художественном мастерстве писателя.

[1] Nasirov A. Hozirgi adabiy jarayon. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 232 b.

[2] Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик: мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.